Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 24-sentyabr, № 199 (9370) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ANDIJON: ULKAN BUNYODKORLIK VA SANOAT TARAQQIYOTINING DADIL ODIMLARI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 23-sentyabr kuni Andijon viloyatiga keldi.



Andijon xalqaro aeroporti zamonaviy qiyofa kasb etib, uning imkoniyatlari kengaymoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning viloyatga tashrifi mazkur obyektda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishishdan boshlandi.

Davlatimiz rahbari bundan uch yil avval hududga tashrifi chog‘ida aeroportni modernizatsiya qilish bo‘yicha qator topshiriqlar bergan edi. O‘tgan yilgi tashrif davomida ham rekonstruksiya jarayonini shaxsan ko‘zdan kechirgan.

Aeroport 1978-yilda ishga tushirilib, 2013-yilda unga xalqaro maqom berilgan. Umumiy maydoni 243,4 gektar bo‘lgan obyektda 100 nafar xodim mehnat qiladi. Vaqt o‘tishi bilan havo bandargohini zamon talablariga moslashtirish, yo‘lovchilar uchun qulayliklarni oshirish va parvozlar geografiyasini kengaytirish zarurati yuzaga keldi.

Aerodrom majmuasini rekonstruksiya qilish loyihasining umumiy qiymati 1,1 trillion so‘mni tashkil etadi. Birinchi bosqichda aeroport infratuzilmasi tubdan yangilandi. Uchish-qo‘nish yo‘lagi 3,3 kilometrgacha uzaytirilib, kengligi 60 metr bo‘lgan yangi “4E” toifali yo‘lak barpo etildi. Shuningdek, 10 ta havo kemasiga mo‘ljallangan to‘xtash joylari va rullash yo‘laklari qurildi.

Qurilish sifati va obyektning uzoq muddat xizmat qilishiga alohida e’tibor qaratildi. Uchish-qo‘nish yo‘lagiga 50 yilgacha xizmat qilishga mo‘ljallangan mustahkam sement-beton qoplamasi yotqizildi. Germaniyaning yuqori aniqlikdagi yoritish-signal tizimi o‘rnatildi. Bu aeroportga tungi vaqtda va quyuq tuman sharoitida ham havo kemalarini xavfsiz qabul qilish imkonini beradi. Ko‘rish masofasi 300 metrgacha qisqarganda ham samolyotlar qo‘na oladi. Endilikda aeroport keng fyuzelyajli yirik havo kemalarini hech qanday cheklovlarsiz qabul qilish imkoniyatiga ega.

Hozirda rekonstruksiyaning ikkinchi bosqichi davom etmoqda. Uning doirasida umumiy maydoni 19 ming 685 kvadrat metr bo‘lgan ikki qavatli zamonaviy terminal binosi barpo etilmoqda. Ilgari aeroport soatiga 200 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatgan bo‘lsa, yangi terminal ishga tushgach bu ko‘rsatkich besh barobar oshadi. Aeroport hududida yuqori tezlikdagi Wi-Fi tarmog‘i va “aqlli” xizmatlar joriy etiladi.

Davlatimiz rahbariga aeroportni rivojlantirish konsepsiyasi taqdimot qilindi. Prezidentimiz zamonaviy terminal binosini belgilangan muddatda va sifatli qurib bitkazish bo‘yicha mas’ullarga topshiriqlar berdi.

Bugungi kunda Andijon xalqaro aeroporti orqali mahalliy va xalqaro yo‘nalishlarda yettita aviakompaniyaning muntazam qatnovlari yo‘lga qo‘yilgan. Kelgusida yillik aviareyslar sonini 808 tadan 2 ming 500 tagacha oshirish, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yiliga 3,5 million nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlar andijonliklar va viloyat mehmonlari uchun transport qulayligini oshirib, hududning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishi ta’kidlandi. Aeroport atrofida zamonaviy servis obyektlarini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Andijon tumanidagi trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Eco Cotton” korxonasiga bordi.

Loyiha davlatimiz rahbarining 2026-yil 29-iyundagi paxta tolasini chuqur qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qarori ijrosi doirasida amalga oshirildi. Korxonada mahalliy xomashyodan ekologik toza, xalqaro standartlarga mos to‘qimachilik mahsulotlari tayyorlanib, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berilmoqda.

Loyihaga tadbirkor tomonidan 10 million dollar sarmoya kiritilib, 1 mingta doimiy ish o‘rni yaratildi. Korxona to‘liq quvvat bilan ishlaganda Davlat byudjetiga yiliga 25 milliard so‘m tushum keltiradi.

Bu yerda ishchi-xodimlarning malakasini oshirish maqsadida dual ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlar nazariy bilimlarni ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘un holda o‘zlashtirmoqda.

Korxonada ishlab chiqarish jarayoni zamonaviy standartlar asosida tashkil etilgan. Xitoyning yetakchi kompaniyalaridan biriga tegishli so‘nggi rusumdagi avtomatlashtirilgan konveyer uskunalari o‘rnatilgan. Barcha jarayonlar raqamli boshqaruv tizimi orqali nazorat qilinadi.

Ekologik talablarga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindilar qayta ishlanib, ularning atrof-muhitga zararli ta’siri kamaytiriladi.

Muassasaning texnologik imkoniyatlari e’tiborga molik. Bu yerda sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan tikuv dastgohlari o‘rnatilgan. “Aqlli” tizim mato turiga qarab tikuv jarayonini real vaqt rejimida avtomatik sozlaydi va choklarning yuqori aniqlikda hamda nuqsonsiz bajarilishini ta’minlaydi. Shuningdek, gumanoid robotlar sinov tariqasida ishlatilmoqda.

Korxona yiliga 30 turdagi 9,4 million dona yuqori sifatli trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ularning umumiy qiymati 135,3 milliard so‘mni tashkil etadi. Raqobatbardosh tannarx va yuqori sifat tufayli mahsulotlar Turkiya, Vyetnam, Xitoy va Hindistonning yetakchi ishlab chiqaruvchilari bilan raqobatlasha oladi.

Yillik eksport salohiyati esa 10,5 million dollarni tashkil etadi. Andijonda tayyorlanayotgan sifatli trikotaj mahsulotlari Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ruminiya va Moldova bozorlariga yetkazib berilmoqda.

Davlatimiz rahbari korxona ishchilari bilan samimiy muloqot qildi.

Shu yerning o‘zida viloyatda yoshlar bilan ishlash, ularni kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitish hamda bandligini ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar va rejalar to‘g‘risida axborot berildi.

Keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon tumanida kichik gidroelektr stansiyalari uchun zarur uskunalar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 28-martdagi hududlarda mikrogidroelektrostansiyalar tarmog‘ini rivojlantirishga doir qarori bu borada muhim asos bo‘ldi. Uning ijrosi doirasida “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi tashkil etilmoqda.

Tog‘li va suv resurslariga boy Markaziy Osiyo davlatlarida bunday uskunalarga talab yuqori. Biroq shu paytgacha mintaqada ularni sanoat miqyosida ishlab chiqaradigan ixtisoslashtirilgan korxonalar yetarli emas edi. Yangi loyiha ana shu ehtiyojni qoplashga qaratilgan.

Andijon viloyatidagi mavjud suv manbalari “yashil” energetikani rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Xususan, Katta Farg‘ona kanalining barqaror suv oqimi mikro va kichik GESlar qurish uchun qulay hisoblanadi.

To‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihaning umumiy qiymati 20 million dollarni tashkil etadi. Korxona 2027-yilda to‘liq quvvat bilan ishga tushiriladi. Shundan so‘ng bu yerda yiliga 70 milliard so‘mlik 100 ta kichik GES majmuasi, shuningdek, mikrogidroenergetika uskunalari, dastgoh va elektr jihozlari ishlab chiqariladi.

Bugungi kunda dunyoda ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga talab ortib bormoqda. Bu jihatdan kichik va mikroGESlar samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Ular atrof-muhitga ta’siri kamligi, qisqa muddatda barpo etilishi va barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarishi bilan ahamiyatlidir.

Loyiha doirasida 200 ta ish o‘rni yaratiladi. Mahsulotlarni Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport qilish, yillik eksport hajmini 3 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Shuningdek, korxona Andijon viloyatida qator mikroGESlar qurishni mo‘ljallagan. Bu aholi va sanoat korxonalarini arzon, ekologik toza hamda barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifi doirasida yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirish va ularning qurilishiga start berish marosimida ishtirok etdi.

So‘nggi yillarda hududda tadbirkorlik va investitsiyalar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Marosimda umumiy qiymati 9 milliard 400 million dollar bo‘lgan 206 ta loyiha qamrab olindi. Shundan 2 milliard 50 million dollarlik 98 ta loyiha ishga tushirildi, 7 milliard 350 million dollarlik 108 ta loyihaning qurilishi boshlandi.

Ushbu loyihalar energetika, qurilish, to‘qimachilik, mashinasozlik, ta’lim, turizm, logistika, farmatsevtika va sog‘liqni saqlash kabi muhim sohalarni qamrab olgan. Ular viloyatning barcha 16 ta shahar va tumanida amalga oshiriladi.

Xususan, paxta-to‘qimachilik klasteri, elektr energiyasini saqlash va taqsimlash tizimi, mebelsozlik va charm-poyabzal sanoat zonalari, elektrobuslar, quyosh panellari va mikrogidroenergetika uskunalari ishlab chiqarish, shuningdek, zamonaviy ta’lim va tibbiyot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Yangi loyihalar doirasida zamonaviy turarjoy majmualari, xalqaro logistika va turizm markazlari, gidroelektrostansiyasi, chiqindilarni qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonasi, transport vositalari va yuk vagonlari ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish ko‘zda tutilgan.

Loyihalar Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Rossiya, Belarus, Germaniya, Hindiston, Birlashgan Arab Amirliklari va Tojikiston kompaniyalari hamda mahalliy investorlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Ularning ro‘yobga chiqarilishi natijasida 45 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratiladi, yiliga 60,6 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish va 533 million dollarlik eksport imkoniyati shakllanadi.

Marosimda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan mas’ullar, xorijlik hamkorlar va tashabbuskorlar videoaloqa orqali ishtirok etdi. Ular loyihalarning ahamiyati, amalga oshirish jarayoni va ishga tushirish muddatlari haqida axborot berdi.

Davlatimiz rahbari mazkur tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijlik hamkorlar va mahalliy tadbirkorlarga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, 98 ta yangi loyihani ishga tushirdi va 108 ta obyekt qurilishiga start berdi. Shundan so‘ng investorlar va hudud faollari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Andijon tumanidagi “Ipak yo‘li” sanoat zonasi hududida joylashgan texnikum faoliyati bilan tanishdi.

Mamlakatimizda yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish bilan bir qatorda ular uchun malakali mutaxassislar tayyorlashga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bunda ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘lash muhim o‘rin tutadi.

“Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi ana shu maqsadda tashkil etilgan. Texnikum “Ipak yo‘li” hududidagi to‘qimachilik, mashinasozlik, elektrotexnika va boshqa yuqori texnologiyali korxonalar uchun talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlaydi.

Loyihaning umumiy qiymati 15 million dollarni tashkil etib, to‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirildi. Natijada 150 ta ish o‘rni yaratildi.

To‘rt gektar maydonda 5 ming nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy o‘quv binosi qurib bitkazildi. Keyingi bosqichda yotoqxona, laboratoriya binosi, sport maydonchasi, oshxona va yashil hudud barpo qilinadi.

Muassasada dual ta’lim tizimi joriy etilgan. O‘quvchilar nazariy bilimlarni texnikumda egallab, amaliyotni sanoat zonasidagi yirik korxonalarda o‘taydi. Shu tariqa ular o‘qish davridayoq ishlab chiqarish jarayoni, zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan yaqindan tanishadi.

Texnikum joriy yil iyun oyida ishga tushirildi. Hozirda bu yerda 210 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda. 2030-yilga qadar yillik qabulni 1 ming 800 nafarga, o‘quvchilarning umumiy sonini esa 4 ming nafarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, ta’lim yo‘nalishlarining soni 20 tagacha ko‘paytiriladi.

Prezidentimiz texnikumda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, yoshlar va investor bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Xo‘jaobod tumanidagi texnoparkda bo‘lib, “aqlli” suv hisoblagichlar ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Andijon maydoni jihatdan kichik, aholi eng zich joylashgan viloyatlardan biri. Shu bois hududda har bir qarich yerdan samarali foydalanish, adirliklarni o‘zlashtirish va yangi sanoat maydonlarini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xo‘jaobod tumanida 300 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobiga tashkil etilgan “Andijon texnoparki” ana shunday yirik loyihalardan biridir. Adirliklarni o‘zlashtirish evaziga ajratilgan 100 gektar maydonda 51 ta sanoat korxonasini joylashtirish rejalashtirilgan.

Sanoat zonasi to‘liq ishga tushgach 3 mingta ish o‘rni yaratiladi. Yiliga 50 dan ortiq turdagi 200 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilib, byudjetga 160 milliard so‘m tushum ta’minlanadi. Viloyatning eksport salohiyati esa 50 million dollarga oshadi.

Sanoat zonasida Xitoyning “Sanchuan” kompaniyasi tomonidan “aqlli” suv hisoblagichlar ishlab chiqarish korxonasi barpo etildi. Qiymati 25 million dollar bo‘lgan loyiha to‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilmoqda. Korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlarining 80 foizi robotlashtirilgan.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Mahorat darsi

XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT MAYDONI

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasida yo‘lga qo‘yilgan “Rahbar ayollar” qayta tayyorlash ta’lim dasturi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning rahbarlik salohiyatini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgani bilan e’tiborga molik. Ayni paytda ushbu dastur bo‘yicha 50 nafar istiqbolli ayol-rahbar tahsil olmoqda.

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mazkur dastur tinglovchilari uchun mahorat darsi o‘tdi.

Unda davlat boshqaruvi, parlament faoliyati, qonun ustuvorligini ta’minlash, jamoatchilik bilan samarali muloqot o‘rnatish, qaror qabul qilishda mas’uliyat va ochiqlik tamoyillariga rioya etish masalalariga e’tibor qaratildi. Xususan, jamiyatda rahbar ayollar sonini ko‘paytirish, mehnat jamoalarida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi bilan birga mas’uliyat ham bir xil bo‘lishi ta’kidlab o‘tildi.

Rahbar faoliyatining eng muhim bahosi – odamlar roziligi va ishonchi. “Rahbar ayollar” dasturi esa yangi bilim va boshqaruv ko‘nikmalarini egallab, o‘z salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lida amaliy natijaga aylantirish uchun katta imkoniyat maydoni sanalishi qayd etildi.

Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini yanada oshirish, zamonaviy rahbar uchun zarur bo‘lgan strategik fikrlash, tashabbuskorlik, jamoani boshqarish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari yuzasidan fikr almashildi.

Tadbirda parlament va davlat boshqaruvidagi ko‘p yillik tajriba, qonun ijodkorligi hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi amaliy faoliyat dastur tinglovchilari uchun mahorat maktabi bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlandi.

Mahorat darsi yakunida ishtirokchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldi va davlat boshqaruvida samarali rahbarlik bo‘yicha amaliy tavsiyalarga ega bo‘ldi.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston – Ozarbayjon:
STRATEGIK SHERIKLIK YANGI BOSQICHDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Spiker Nuriddin Ismoilovning Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekistondagi yangi tayinlangan Favqulodda va muxtor elchisi Rashad Mamedov bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv

Ta’kidlanganidek, davlat rahbarlarining o‘zaro tashriflari ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil may oyida Ozarbayjonga amaliy tashrifi hamda Prezident Ilhom Aliyevning avgust oyida O‘zbekistonga davlat tashrifi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yangi mazmun bilan boyitdi.

R. Mamedov samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, davlat rahbarlarining qat’iy siyosiy irodasi tufayli ikki mamlakat munosabatlari barcha sohalarda izchil taraqqiy etib, yangi amaliy mazmun bilan boyib borayotganini alohida e’tirof etdi.

Elchining ta’kidlashicha, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning O‘zbekistonga davlat tashrifi doirasida imzolangan Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Shuningdek, u so‘nggi yillarda parlamentlararo aloqalar sezilarli ravishda faollashib borayotganini ta’kidlar ekan, parlamentlar o‘rtasidagi muntazam muloqot, tajriba almashinuvi va qo‘shma tashabbuslar ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutayotganini qayd etdi.

Uchrashuv davomida ikki davlat parlamentlari hamkorlik munosabatlarining hozirgi holati va uni yanada kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi.

Tomonlar oliy darajada erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini ta’minlash, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish va ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladigan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashda parlamentlarning rolini yanada oshirish muhimligini qayd etdi.

Uchrashuv ochiq va do‘stona ruhda o‘tdi.

“Xalq so‘zi”.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 24-sentyabr

ANDIJON: ULKAN BUNYODKORLIK VA SANOAT TARAQQIYOTINING DADIL ODIMLARI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

“Huawei” kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqarilayotgan “5G” texnologiyasi asosidagi “aqlli” hisoblagichlar suv sarfi va sifati, qurilmalarning texnik holati hamda balansni onlayn kuzatish imkonini beradi.

Korxonada yiliga 15 turdagi 1 million dona “aqlli” suv hisoblagich ishlab chiqariladi. Ular suv to‘planishining oldini oluvchi maxsus konstruksiya va sovuqqa chidamli korpus bilan jihozlanadi.

Shuningdek, bu yerda dual ta’lim dasturi ham yo‘lga qo‘yilgan.

Mahalliylashtirish darajasini 2030-yilga qadar 70 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Shu maqsadda sanoat zonasida butlovchi va ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi korxonalar joylashtiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifi davomida Oltinko‘l tumanidagi charm-poyabzal kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Mamlakatimizda charm xomashyosini chuqur qayta ishlash, eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ichki bozorni sifatli hamda hamyonbop poyabzallar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Oltinko‘l tumanidagi kichik sanoat zonasi vodiydagi charm mahsulotlari va tayyor poyabzal ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar, kosiblar hamda klasterlarni birlashtiruvchi yagona sanoat majmuasidir. Bu yerda xomashyoni qayta ishlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotishgacha bo‘lgan to‘liq zanjir shakllantirilmoqda.

Majmuaning umumiy maydoni 10,1 gektar, loyihalar qiymati esa 28 million dollarni tashkil etadi. Hududning 5,5 gektarida zamonaviy ishlab chiqarish binolari, dual ta’lim markazi va savdo shoxobchalari barpo etilgan.

Sanoat zonasida umumiy ishlab chiqarish quvvati 150 milliard so‘m bo‘lgan 17 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan 10 tasi poyabzal va tagcharm, 2 tasi sun’iy charm, 2 tasi poyabzal yelimi ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan. Qolgan loyihalar doirasida rezina poyabzal, maxsus poyabzallar uchun ustki qismlar ishlab chiqarish va teri tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

Bugungi kunga qadar majmuada 2 ming 500 ta ish o‘rni yaratildi.

Bu yerda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘onistonga eksport qilinmoqda. Ishlab chiqarishga Turkiya, Xitoy va Italiyada malaka oshirgan mutaxassislar jalb etilgan. Ularning tajribasi mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Soha rivojini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlarga qator imtiyoz va imkoniyatlar berilgan. Jumladan, ishlab chiqarish bino va inshootlari qiymatini yetti yilgacha bo‘lib to‘lash sharti bilan sotiladi.

Davlatimiz rahbari majmuada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirib, loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va eksport salohiyatiga alohida e’tibor qaratdi.

Tadbirkorlar bilan muloqotda mahsulot sifatini oshirish, zamonaviy modellarni o‘zlashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Shuningdek, mahalliy kosibchilik an’analarini zamonaviy sanoat usullari bilan uyg‘unlashtirish, soha vakillari uchun yaratilgan sharoitlarni yanada yaxshilash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Baliqchi tumanidagi “LB Sport” korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi.

Mamlakatimizda sport industriyasini rivojlantirish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish va mahalliy ishlab chiqarishni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda import o‘rnini bosadigan, xalqaro standartlarga mos sifatli sport anjomlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega.

“LB Sport” sport anjomlari ishlab chiqaruvchi yetakchi mahalliy korxonalardan biridir. Korxona 20 dan ortiq sport federatsiyalari bilan hamkorlik qilmoqda.

Mazkur loyiha davlatimiz rahbarining joriy yil 24-martdagi sport sohasiga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishni kengaytirishga doir qarori asosida amalga oshirilgan.

Loyihaning umumiy qiymati 25 milliard so‘m bo‘lib, u tadbirkorning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan. Korxonada 18 ta sport turi bo‘yicha 65 xil mahsulot ishlab chiqariladi. Yiliga 500 ming dona, umumiy qiymati 75 milliard so‘m bo‘lgan sport anjomlari tayyorlanadi.

Mahsulotlar sifat jihatdan xorijiy muqobillari bilan raqobatlasha oladi, narxi esa nisbatan arzon. Ular Qozog‘iston, Qirg‘iziston va MDHning boshqa davlatlariga eksport qilinmoqda. Yillik eksport hajmi 3 million dollarni tashkil etadi.

Korxona faoliyatida aholi bandligini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilgan. Baliqchi tumanidagi 800 ta kam daromadli oila bilan kasanachilik asosida hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Kasanachilarning 90 foizini ayollar tashkil etadi, 65 foizi 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardir. Mazkur tizim aholiga o‘z xonadonida mehnat qilib, barqaror daromad olish imkonini bermoqda.

Korxonada ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Tumandagi 1 va 2-son texnikumlarning 100 nafar o‘quvchisi dual ta’lim asosida o‘qitilmoqda. Ular nazariy bilimlarini bevosita ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlamoqda.

Davlatimiz rahbari ishlab chiqarish jarayoni va tayyor mahsulotlar namunalarini ko‘zdan kechirdi.

Korxonaning istiqboldagi rejalari haqida axborot berildi. Ishlab chiqarish yo‘nalishlarini kengaytirish maqsadida 2027-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida sport velosipedlari ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shu yerning o‘zida iqtidorli yoshlar, korxona ishchilari bilan samimiy muloqot qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Baliqchi tumanidagi “Chinobod real biznes” korxonasining baliq yetishtirish loyihasi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va unga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanib, kichik maydonlarda intensiv usulda yuqori hosil olish muhim ahamiyatga ega.

“Chinobod real biznes” korxonasida ana shunday zamonaviy tizim yo‘lga qo‘yilgan. Loyiha davlatimiz rahbarining joriy yil 2-iyuldagi baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirishga oid farmoni asosida amalga oshirilgan. Korxona vodiydagi baliqchilik xo‘jaliklarining forel chavog‘iga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Loyihaning umumiy qiymati 30 milliard so‘mni tashkil etadi. Korxonada 30 ta ish o‘rni yaratilgan.

Ikki gektar maydondagi zamonaviy majmuada yiliga 200 tonna baliq go‘shti va 2,5 million dona baliq chavog‘i yetishtiriladi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 50 milliard so‘mni tashkil etadi.

Intensiv texnologiyalar qo‘llanilishi natijasida ikki gektar maydonda an’anaviy usuldagi 100 gektarlik havzalar bilan teng hajmda mahsulot yetishtirish imkoniyati yaratilgan.

Majmuada ikki million litr hajmdagi suvni tabiiy usulda tozalash imkonini beruvchi laboratoriya ham tashkil etilgan. Unda suv sifatini yaxshilaydigan xlorella suv o‘ti yetishtiriladi. Ushbu ekologik toza tizim baliq yetishtirish samaradorligini yana 15 – 20 foizga oshirishga xizmat qiladi.

Korxonaning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoji quyosh panellari hisobidan to‘liq qoplanadi. Baliq yetishtiriladigan hovuzlardan chiqqan fosfor, ammiak va kalsiy kabi tabiiy moddalarga boy suv ham isrof qilinmay, ekinlarni sug‘orishga yo‘naltiriladi. Shu tariqa majmuada resurslardan qayta foydalanishning yaxlit tizimi yaratilgan.

Korxona Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘onistonga yiliga 2 million dona forel chavog‘i eksport qiladi. Yillik eksport hajmi 2 million dollar, byudjetga tushum esa 5 milliard so‘mni tashkil etadi.

Loyiha aholi bandligini ta’minlashga ham xizmat qilmoqda. Baliqchi tumanidagi Sarvul mahallasida 20 ta xonadon korxona bilan kooperatsiya asosida forel yetishtirib, qo‘shimcha daromad olmoqda.

Majmuada ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi ham yo‘lga qo‘yilgan. Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti bilan hamkorlikda Baliqchilik va parrandachilik amaliyot markazi tashkil etilgan. Bu yerda talabalar nazariy bilimlarini ishlab chiqarish jarayonida mustahkamlab, amaliy ko‘nikma orttirmoqda.

Davlatimiz rahbari bunday yuqori samarali loyihalar aholi bandligini ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

Mutasaddilarga kichik maydonlarda intensiv usullarni qo‘llash orqali mahsulot hajmini bir necha barobar oshirish bo‘yicha ushbu tajribani keng ommalashtirish va yangi loyihalarni ko‘paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Baliqchi tumanidagi Sun’iy intellekt markaziga tashrif buyurib, yoshlarning startap loyihalari bilan tanishdi.

“Akademiya IT Star” korxonasi tomonidan tashkil etilgan ushbu markaz davlatimiz rahbarining 2024-yil 26-fevraldagi raqamlashtirish sohasida xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qarori asosida barpo etilgan.

Axborot texnologiyalari yoshlar uchun eng talab yuqori bo‘lgan sohalardan biriga aylanmoqda. Shu bois hududlarda zamonaviy IT kasblarni egallash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va raqobatbardosh dasturiy mahsulotlar yaratish uchun sharoitlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Loyihaning umumiy qiymati 15 milliard so‘mni tashkil etib, 100 ta ish o‘rni yaratilgan.

Markaz qishloq va tuman yoshlariga boshqa hududlarga bormasdan, o‘z yashash joyida zamonaviy bilim va kasblarni egallash imkonini bermoqda. Bu yerda marketing, dasturlash va robototexnika yo‘nalishlarida ta’lim berilib, yoshlar olgan bilimlarini amaliy loyihalarda qo‘llamoqda.

Muassasa imkoniyatlaridan mahalliy tadbirkorlar ham samarali foydalanmoqda. Ularga sun’iy intellekt asosida biznesni rivojlantirish bo‘yicha maslahat va IT xizmatlari ko‘rsatiladi. Shu kunga qadar 500 dan ortiq tadbirkorlik subyektlariga jami 8,5 milliard so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan.

Bugungi kunda viloyatdagi 65 mingta tadbirkorlik subyekti uchun SMM-menejer, mobilograf, grafik dizayner, marketolog, ma’lumotlar tahlilchisi va sun’iy intellekt mutaxassislariga ehtiyoj 129 ming nafardan ortiqni tashkil etmoqda. Markazdagi ta’lim dasturlari ana shu talabdan kelib chiqib shakllantirilgan.

Davlatimiz rahbari yoshlar yaratgan startaplar bilan yaqindan tanishib, ularning bilim va intellektual salohiyatiga yuqori baho berdi. Samimiy muloqot davomida yigit-qizlar mamlakatimizda startap ekotizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan yangi tashabbus va takliflarini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifi davomida Baliqchi tumanidagi “Sokin savdo servis” parrandachilik klasteri faoliyati bilan ham tanishdi.

Parranda go‘shti parhezbopligi va hamyonbopligi bilan aholi ratsionida muhim o‘rin tutadi. Shu bois mamlakatimizda yirik parrandachilik majmualarini tashkil etish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va bozorni sifatli mahsulotlar bilan barqaror ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur parrandachilik klasteriga 2010-yilda asos solingan. Bugungi kunda uning Andijon viloyatida 5 ta, Namangan viloyatida 3 ta xo‘jaligi mavjud. Toshkent viloyatidagi korxonada esa parrandalar uchun ozuqa ishlab chiqariladi.

Klasterda ozuqa tayyorlash, parranda boqish, so‘yish, go‘shtni qayta ishlash, qadoqlash va iste’molchiga yetkazib berishni qamrab olgan to‘liq ishlab chiqarish zanjiri yaratilgan. Go‘shtni qayta ishlash majmuasi avtomatlashtirilgan bo‘lib, yuqori gigiyenik talablarga javob beradi.

Loyihaning umumiy qiymati 29 million dollarni tashkil etadi. Klasterda 417 nafar kishi mehnat qilmoqda.

Ayni paytda majmuada 1,5 million dona broyler tovug‘i parvarishlanmoqda. Yiliga 8,2 million dona broyler boqish va 20,6 ming tonna parranda go‘shti yetishtirish imkoniyati mavjud.

Majmuada yiliga 55 ming tonna tovuq go‘shti va yarimtayyor mahsulotlarni qayta ishlash quvvatlari yaratilgan. Mahsulotlar “Halol”, “HACCP” va “ISO” standartlari asosida ishlab chiqariladi.

Joriy yil boshidan klasterda naslchilik yo‘nalishi ham yo‘lga qo‘yildi. Hozirda 25 ming dona naslli ona tovuq parvarishlanib, yiliga 9 million dona tuxumdan 7,6 million dona broyler jo‘ja olish rejalashtirilgan.

2027-yil yakuniga qadar parranda chiqindilarini qayta ishlashga mo‘ljallangan rendering liniyasi ishga tushiriladi hamda parranda boqishda ko‘p qavatli katak tizimi joriy etiladi. Ushbu ikki loyihaga 10 million dollar yo‘naltiriladi.

Shuningdek, faoliyati to‘xtab qolgan yoki moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan parrandachilik xo‘jaliklarini klaster bilan yagona kooperatsiya tizimiga birlashtirish taklif etilmoqda. Ushbu tashabbus 350 – 400 ta ish o‘rnini qayta tiklash va qo‘shimcha 1,7 million dona parranda yetishtirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbariga klasterdagi ishlab chiqarish jarayonlari, tayyor mahsulotlar va istiqbolda amalga oshiriladigan yangi loyihalar haqida axborot berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Agroklaster Oltinko‘l” korxonasida Shinjon usuli asosida paxta yetishtirish jarayonini ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish hamda ilmiy ishlanma va yondashuvlarni ishlab chiqarishga tatbiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 9-dekabrdagi paxtachilik va g‘allachilikda hosildorlikni oshirishga doir qarori bu boradagi ishlarni kengaytirish uchun muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Paxtachilikda Shinjon usulining qo‘llanilishi hosildorlikni sezilarli oshirish bilan birga suv, o‘g‘it va boshqa resurslarni tejash, g‘o‘zani parvarishlash xarajatlarini kamaytirish imkonini bermoqda.

“Agroklaster Oltinko‘l” korxonasining umumiy ekin maydoni 850 gektarni tashkil etadi. Shundan 23 gektarida Shinjon usuli asosida paxta yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan.

Shinjon texnologiyasida chigit plyonka ostiga qo‘sh qatorlab ekiladi. Bu tuproq namligi va haroratini barqaror saqlashga, chigitning erta va bir tekis unib chiqishiga xizmat qiladi.

Tomchilatib sug‘orish va oziqlantirish tizimi orqali suv hamda o‘g‘it bevosita g‘o‘za ildiziga yetkaziladi. Natijada ortiqcha sarfning oldi olinib, suv 40 foizgacha, o‘g‘it esa qariyb 30 foizga tejaladi.

An’anaviy usulda bir gektar maydondan o‘rtacha 30 – 35 sentner paxta olinsa, Shinjon texnologiyasida ushbu ko‘rsatkich 60 – 70 sentnerga yetadi. Plyonka ostida shakllangan qulay mikroiqlim tufayli hosilni an’anaviy maydonlardagiga nisbatan 10 – 15 kun ertaroq yig‘ib olish mumkin.

Korxonada agrotexnik tadbirlarning asosiy qismi agrodronlar yordamida bajarilmoqda. Bu maxsus texnikalardan foydalanish ehtiyojini va yonilg‘i sarfini keskin kamaytirmoqda.

Davlatimiz rahbariga loyihaning natijalari, iqtisodiy samaradorligi va mazkur texnologiyani yanada kengaytirish rejalari haqida axborot berildi.

Andijon viloyatining Asaka tumanidagi adirliklar musaffo havosi va o‘ziga xos tabiati bilan ajralib turadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tumanning “Yangi hayot” hududidagi 192 gektar maydonda barpo etilgan ekoturizm majmuasiga tashrif buyurdi.

Loyiha davlatimiz rahbarining topshirig‘i asosida Agrosanoatni rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Tabiat va zamonaviy qulayliklar uyg‘unlashgan ushbu maskan qisqa vaqtda aholi va sayyohlar e’tiborini tortdi.

Majmua baland tepalikda joylashgan bo‘lib, bu yerdan tumanning keng manzarasi namoyon bo‘ladi.

Hududda kapsula shaklidagi 4 ta zamonaviy dam olish uyi va milliy uslubdagi 5 ta o‘tov o‘rnatilgan. O‘ttiz gektar maydonda manzarali daraxtlar va archalar ekilgan. Oilaviy restoran, turli attraksionlar hamda zamonaviy tungi yoritish tizimi tashkil etilgan.

Majmuada tabiiy muhitni saqlash va resurslardan oqilona foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan. Hududda 14 ming kubometr sig‘imga ega membranali suv havzasi qurilgan. Daraxt va ekinlar to‘liq tomchilatib sug‘orish tizimi orqali sug‘oriladi.

Loyihaning umumiy qiymati 51,8 milliard so‘mni tashkil etadi. Uning amalga oshirilishi natijasida mahalliy aholi uchun 275 ta doimiy va 200 ta mavsumiy ish o‘rni yaratildi. Shuningdek, bog‘da yetishtiriladigan uzumni eksport qilish rejalashtirilgan.

Muassasa to‘liq quvvat bilan ishga tushgach yiliga 80 milliard so‘mlik xizmatlar ko‘rsatilishi hamda mahalliy byudjetga 3 milliard so‘m tushum ta’minlanishi kutilmoqda.

Joriy yil yakuniga qadar to‘liq ishga tushirilishi rejalashtirilgan “Uzum bog‘i” majmuasi Andijon viloyatining jozibador sayyohlik maskanlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Shu yerda yozilgan dasturxon atrofida davlatimiz rahbari viloyat faollari va mehnat faxriylari bilan samimiy suhbatlashdi. Muloqotda Andijonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar, aholi farovonligini oshirish, mahallalarni obod qilish va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish haqida so‘z bordi.

Tadbir davomida madaniy dastur va dronlar shousi namoyish etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahrining O‘rikzor mahallasida tashkil etilgan gastronomik turizm ko‘chasi bilan tanishdi.

Mashrab va Sarikuy ko‘chalarini qamrab olgan mazkur loyihaning umumiy qiymati 18 milliard so‘m bo‘lib, shundan 8 milliard so‘mi respublika byudjeti, 10 milliard so‘mi tadbirkorlar mablag‘i hisobidan moliyalashtirildi.

Ko‘chaning umumiy uzunligi 1,2 kilometrni tashkil etadi. Bu yerda piyodalar va velosipedlar uchun keng va xavfsiz yo‘laklar barpo etildi, zamonaviy landshaft dizayni yaratildi, favvoralar va turli yoritish vositalari o‘rnatildi. Selfi hududlari, ochiq sport maydonchalari, bolalar uchun ekomaydonchalar hamda oilaviy dam olish maskanlari tashkil qilindi.

Hududdagi 35 ta savdo obyektida 30 ta tadbirkorlik subyekti 7/24 tartibda xizmat ko‘rsatadi. Loyiha doirasida 100 ta ish o‘rni yaratildi. Ko‘cha kuniga 10 mingdan ziyod aholi va sayyohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega.

Davlatimiz rahbari ko‘cha bo‘ylab sayr davomida aholi va tadbirkorlar bilan samimiy muloqot qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi Bobursho ko‘chasining ikki qismini bog‘lovchi yangi yo‘lo‘tkazgich bilan tanishdi.

Inshoot shaharning ikki qismini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lab, transport harakatini yengillashtirish va ortiqcha aylanma yo‘lni bartaraf etishga xizmat qiladi. Umumiy qiymati 271 milliard so‘m bo‘lgan loyiha davlatimiz rahbarining Andijon viloyatiga avvalgi tashrifi chog‘ida bergan topshirig‘i asosida amalga oshirildi.

Yo‘lo‘tkazgichning umumiy uzunligi 796 metr, kengligi 25,9 metrni tashkil etadi. Uning 596 metri estakada, 200 metri esa tirgak devorli yo‘l qismidan iborat.

Yangi inshoot, eng avvalo, aholi uchun katta qulaylik yaratdi. Andijon shahri va Oltinko‘l tumanida yashovchi 140 ming nafar aholi endilikda 5,3 kilometr ortiqcha yo‘l bosmaydi.

Shuningdek, maxsus xizmatlarning qatnov masofasi 15 kilometrdan 9,3 kilometrga qisqardi. Ortiqcha masofa hamda temir yo‘l kesishmasidagi kutishlarning bartaraf etilishi natijasida manzilga yetib borish vaqti 17 daqiqagacha kamayadi.

Ayniqsa, bu shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Endilikda bemorlarni shoshilinch tibbiy yordam markaziga avvalgidan 14 daqiqa ertaroq yetkazish imkoni yaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Dilshod HAKIMOV,
O‘zA maxsus muxbirlari.

MUROJAATLAR BILAN ISHLASHDA TIZIMLI YONDASHUV ZARUR

O‘tgan haftada parlament vakillaridan iborat respublika ishchi guruhi Qashqadaryo viloyatida jamoat tartibi va xavfsizligi, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishlarida aholi murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan o‘rganishlar olib borgan edi.

Muhokama

Kuni kecha Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi, Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi, Innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining qo‘shma majlisida ushbu tahlillar natijalari muhokama qilindi.

O‘rganishlar davomida aholi murojaatlari salmog‘i yuqori bo‘lgan Qarshi shahri hamda Qarshi, Koson, Chiroqchi, Kitob, G‘uzor, Ko‘kdala va Yakkabog‘ tumanlarida ichki ishlar organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash amaliyoti ko‘rib chiqildi. Aniqlangan holatlar, mavjud muammo va kamchiliklar yuzasidan mas’ul rahbarlarning axborotlari eshitildi.

Muhokamada fuqarolar murojaatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishda qonunchilik talablariga rioya etish, ularning huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ko‘tarilgan masalalarni joyiga chiqqan holda o‘rganish va ularga aniq amaliy yechim topishga alohida e’tibor qaratildi.

Respublika ishchi guruhining o‘rganishlari natijalari aholi murojaatlari bilan ishlashda ayrim holatlarda tizimli yondashuvni kuchaytirish, muammolarni faqat murojaat doirasida emas, balki ularning kelib chiqish sabablari bilan birgalikda tahlil qilish lozimligini ko‘rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, mas’ul rahbarlarning murojaatlarni ko‘rib chiqishdagi mas’uliyatini oshirish, aholi bilan muloqotni kuchaytirish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, fuqarolar murojaatlariga e’tiborsiz bo‘lmaslik, aholi muammolarini chuqur o‘rganish va hal etish, takroriy murojaatlarga o‘rin qoldirmaslik zarurligi qayd etildi.

Majlisda ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan muloqot madaniyati, murojaatlarni ko‘rib chiqish sifati va samaradorligi, jamoat tartibi hamda xavfsizligi, shuningdek, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bilan bog‘liq arizalarning amaliy natijadorligini ta’minlash yuzasidan mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Muhokama yakunlari bo‘yicha aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar muammolarini o‘z vaqtida, joyida hal etishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish yuzasidan qo‘shma qaror qabul qilindi.

KUN TARTIBIDA – PARLAMENTLARARO FORUMGA TAYYORGARLIK MASALALARI

Oliy Majlis Senati Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi A. A’zamxo‘jayev va Belarus Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari I. Brilevich raisligida yig‘ilish o‘tkazildi.

Yig‘ilish

Ikki davlat parlamentlari, vazirlik va idoralari vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari ishtirok etgan onlayn muloqotda Belarus Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi N. Kochanova boshchiligidagi delegatsiyaning shu yil 29-30-sentyabr kunlari uyushtiradigan Xiva shahriga tashrifi, O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumi, biznes-forum va milliy mahsulotlar ko‘rgazmasini yuqori darajada tashkil etish masalalari e’tibor markazida bo‘ldi.

Ta’kidlanganidek, tashrif dasturidan O‘zbekiston – Belarus parlamentlararo forumi, parlament rahbarlarining muloqoti, parlamentlararo komissiyaning uchinchi majlisi, Yoshlar parlamentlari uchrashuvi, mahalliy vakillik organlari vakillarining yig‘ilishi, sanoat, turizm, qishloq xo‘jaligi va gumanitar sohalar bo‘yicha seksiyalar majlislari, to‘rtinchi O‘zbekiston – Belarus ayollari biznes forumi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari mahsulotlari ko‘rgazmalari o‘rin olgan.

Muhokamada ushbu tadbirlarning har birini mazmunli tashkil etish, ular doirasida aniq amaliy natijalarga erishish va ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni yangi loyihalar bilan boyitish muhimligi aytildi.

Shuningdek, tashrif doirasida imzolanishi rejalashtirilayotgan ikki tomonlama hujjatlar va kelishuvlar paketini shakllantirish, ularni tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha muvofiqlashtirish hamda amaliy mazmun bilan to‘ldirish, shuningdek, anjumanning tashkiliy-texnik jihatlarini ta’minlash, tadbirlar dasturi va muhokama etiladigan masalalarni yakuniy shaklga keltirish, shuningdek, mas’ul vazirlik va idoralar o‘rtasida muvofiqlashtirish ishlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish yuzasidan vazifalar belgilab olindi.

“Xalq so‘zi”.

29-sentyabr kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston Advokatlar palatasi va Londondagi “Lawlex Solicitors” kompaniyasi hamkorligida Ingliz huquqi forumi o‘tkaziladi.

O‘ZBEKISTON QAHRAMONI PARDA ZIYATOV



Butun hayoti va faoliyatini qishloq xo‘jaligi sohasi rivojiga bag‘ishlagan taniqli fermer, O‘zbekiston Qahramoni Parda Ziyatov shu yil 23-sentyabr kuni 79 yoshida vafot etdi.

P. Ziyatov 1947-yili Jizzax viloyatining Sharof Rashidov (sobiq Jizzax) tumanida tug‘ildi. O‘rta maktabni tugatib, Samarqand qishloq xo‘jaligi texnikumida agronom mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oldi.

Harbiy xizmatni o‘tab kelgach, mehnat faoliyatini tumandagi Hamroqul Nosirov nomidagi jamoa xo‘jaligida tabelchi sifatida boshladi. Keyinchalik mazkur xo‘jalikda brigada boshlig‘i, shirkat xo‘jaligi bosh pudratchisi kabi vazifalarda samarali faoliyat yuritdi.

Dehqonchilik ilmini chuqur biladigan P. Ziyatov 2003 – 2018-yillarda Sharof Rashidov tumanidagi “Quyoshsevar Parda” fermer xo‘jaligiga rahbarlik qilib, mamlakatimizda agrar sohada keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, fermerlik harakati rivojini yangi bosqichga olib chiqishga katta hissa qo‘shdi. U shartnoma rejalarini muntazam ortig‘i bilan bajarib kelgan, paxtachilik va g‘allachilikda o‘z tajriba maktabini yaratgan zahmatkash fermer, mohir tashkilotchi, kamtarin va samimiy inson sifatida nafaqat Jizzax viloyatida, balki butun respublikamizda munosib obro‘-e’tibor topdi.

Mashhur fermer ko‘plab yoshlarga ustozlik qilib, qishloq xo‘jaligi sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlash borasida ham alohida jonbozlik ko‘rsatdi.

P. Ziyatov 1990 – 1995-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, 2005 – 2015-yillarda Oliy Majlis Senati a’zosi hamda ko‘p yillar davomida xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashlari deputati sifatida faoliyat yuritib, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, qurilish-bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarida jonkuyarlik va tashabbuskorlik fazilatlarini namoyon etdi.

P. Ziyatov so‘nggi yillarda, nafaqada bo‘lishiga qaramasdan, qishloq va mahallalarni obod qilish, keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonlarida faol ishtirok etdi.

Parda Ziyatovning ko‘p yillik samarali mehnati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan mukofotlangan edi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi sohasining yorqin namoyandasi, mehnat faxriysi, samimiy va kamtarin inson Parda Ziyatovning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, S. TURDIYEV, I. ABDURAHMONOV, U. MUSTAFOYEV

Dil so‘zi

OLIS MANZILLARDAGI MISLSIZ O‘ZGARISHLAR

Qoraqalpog‘iston chekka va olis hudud hisoblansa-da, bugun bu zaminning qay go‘shasiga qadam qo‘ymang, obod va go‘zal maskanlarga ko‘zingiz tushadi. Keyingi o‘n yilda Qoraqalpog‘iston tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketdi: odamlar yelkasiga oftob tekkanini dildan his qilmoqda. Buni men mahalla raisi sifatida fuqarolar bilan uchrashganda, xonadonlarga borganimda, keksalar duoga qo‘l ochganida yurakdan



Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga tashrifini xalqimiz juda katta mamnuniyat va quvonch bilan kutib oldi. Chunki odamlarimiz har bir tashrifdan so‘ng hududda yangilanishlar – Orolbo‘yida ko‘pdan-ko‘p loyihalar amalga oshishini, tadbirkorlik va aholi yashash darajasi yanada yuksalishini yaxshi anglashadi.

Nukus shahrida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan Qoraqalpog‘istonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda bevosita ishtirok etarkanman, bu zamindagi yangilanish va yuksalishlardan mamlakatimiz yetakchisining mamnun ekanligini o‘zidan eshitib nihoyatda g‘ururlandim. Zotan, bu xalqimizga, odamlar mehnatiga berilgan yuksak baho edi.

O‘zimdan qiyos: 36 yildirki mahalla sohasida mehnat qilaman. Shunday davrlar bo‘ldiki, eslasam haligacha yuragim zirillaydi. Mahalla idoramiz ijarada joylashgan, yog‘in-sochin kunlarda chakka o‘tib, o‘zimiz sovuqda dildirab o‘tirardik. Shukrki, u kunlar ortda qoldi, bugun mahallamiz idorasi yangi va muhtasham binoda joylashgan.

Keyingi yillarda barcha yo‘nalishlar qatori mahalla sohasiga qaratilayotgan e’tibor tufayli moddiy-texnika bazamiz ham mustahkamlandi. Mahallada har bir xonadon egalari tomorqachilik, chorvachilik va parrandalar parvarishi bilan mashg‘ul.

Odamlarimiz mehnatsevar, yerga mehr qo‘ygan. Ya’ni tomorqasidan bir yilda uch martalab hosil oladi. Yaratilgan imkoniyatlar tufayli issiqxonalar yuritayotgan, bog‘dorchilik, asalarichilikni yo‘lga qo‘ygan oilalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu, albatta, aholi farovonligining garovi.

Umuman, tashrif chog‘idagi uchrashuvlar, Prezidentimizning Qoraqalpog‘iston xalqiga mehri qalblarimizda yorqin iz qoldirdi. Belgilab berilgan navbatdagi vazifalar, kutilayotgan o‘zgarishlar, paydo bo‘layotgan imkoniyatlar, amalga oshirilajak loyihalarning barchasi xalqimizga munosib turmush sharoitlari yaratishga qaratilgani bilan barchamizni quvontirdi.

O‘ringul ALLABERGENOVA,
To‘rtko‘l tumanidagi “Yashnobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputati.

Munosabat

AHOLI FAROVONLIGIGA MUSTAHKAM ZAMIN

Prezidentimizning Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangi investitsiya loyihalari va bunyodkorlik ishlari bilan tanishgani hududning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga qaratilgan amaliy ishlarning jadal tus olganini ko‘rsatdi.



Xususan, Andijon xalqaro aeroporti modernizatsiyasi viloyatning transport-logistika imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi uchish-qo‘nish yo‘lagi, zamonaviy terminal, yuqori texnologik navigatsiya va yoritish tizimlarining joriy etilishi yo‘lovchilarga qulaylik yaratish bilan birga, viloyatning xalqaro iqtisodiy va turistik aloqalarini rivojlantirish uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

To‘qimachilik sanoatida yo‘lga qo‘yilayotgan yangi loyihalar esa mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. “Eco Cotton” korxonasida zamonaviy avtomatlashtirilgan texnologiyalar, sun’iy intellekt elementlari va raqamli boshqaruv tizimlarining qo‘llanilayotgani sanoatni texnologik yangilash borasidagi muhim tendensiyadir.

Viloyatda kichik va mikrogidroelektr stansiyalari uchun uskunalar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihasi alohida tahsinga loyiq. Chunki qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va “yashil” energetika infratuzilmasini kengaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan sanaladi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 28-martdagi hududlarda mikrogidroelektr stansiyalari tarmog‘ini rivojlantirishga doir qarori bu borada muhim asos bo‘ldi. Uning ijrosi doirasida “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi tashkil etilmoqda. To‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihaning umumiy qiymati 20 mln. dollarni tashkil qilishi, kelgusi yilda to‘liq ishga tushirilishi va yiliga 70 mlrd. so‘mlik 100 ta kichik GES majmuasi, shuningdek, mikrogidroenergetika uskunalari, dastgoh va elektr jihozlari ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgani uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Shuningdek, tashrif davomida umumiy qiymati 9,4 mlrd. dollarlik 206 ta investitsiya loyihasining taqdim qilingani Andijon viloyatida investitsiyaviy faollik tobora kuchayib borayotganidan dalolat. Ularning energetika, qurilish, to‘qimachilik, mashinasozlik, farmatsevtika, logistika, turizm, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi sohalarni qamrab olgani hudud iqtisodiyotini diversifikatsiyalash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu loyihalar natijasida esa 45 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish va eksport salohiyatining oshishi, aholi daromadlarining ko‘payishi uchun yangi imkoniyatlar shakllanishi kutilmoqda. Mazkur loyihalarning samaradorligi nafaqat ularning foydalanishga topshirilishi, balki belgilangan quvvatlarda barqaror ishlashi, yangi mehnat o‘rinlarining sifatli va doimiy bo‘lishi, mahsulotlarning raqobatbardoshligi hamda aholi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning amaldagi natijasi bilan baholanishi muhim.

Bugun Andijonda shakllanayotgan yangi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi viloyatning iqtisodiy salohiyatini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarish, investitsiyalarni jalb etish, eksportni ko‘paytirish hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Eng muhimi, bu jarayonlarda zamonaviy texnologiyalar, inson kapitali, yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotganidir. Bu esa Andijonning kelgusi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.

Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.

KUCHLI MAHALLA – FAOL FUQARO, BAXTIYOR OILA VA OBOD HUDUD DEMAK

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mahalla institutini jamiyat taraqqiyotining muhim tayanchiga aylantirish yo‘lida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida belgilab berilgan oltinchi milliy dastur – mahallaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini tubdan oshirish, uni asosiy buyurtmachiga aylantirish vazifasi ilgari surildi. Endilikda davlat dasturlari, tuman byudjeti, investitsiya va infratuzilma loyihalari yuqoridan pastga qarab emas, balki mahallaning buyurtmasi va aholi real ehtiyojidan kelib chiqib shakllantirilishi ko‘zda tutilmoqda.

Bu mahallaning vazifasi va maqomiga nisbatan prinsipial yondashuv o‘zgarayotganini anglatadi. Endi mahalla faqat aholi murojaatlarini qabul qiladigan yoki ijtimoiy masalalarni hal etadigan hududiy bo‘g‘in emas. Uning fikri, ehtiyoji va tashabbusi hududni rivojlantirishga oid qarorlarni belgilashda muhim mezonga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda joriy qilingan mahallabay ishlash tizimi ham bu yondashuvning amaliy samarasini ko‘rsatdi. Mazkur tizim orqali kambag‘allik darajasini sezilarli qisqartirishga erishilgani mahalla institutiga berilgan vakolatlar aholi hayotida bevosita natija berishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. E’tiborlisi, Prezidentimizning bayramdagi nutqida belgilab berilgan vazifalar oradan ko‘p o‘tmay o‘tkazilgan yig‘ilishlarda ham izchil davom ettirildi. 3-sentyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektorda har bir oila bilan manzilli ishlash, odamlarni doimiy ish va barqaror daromad manbaiga bog‘lash, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solishga qaratilgan yangi yondashuvlar belgilandi. Asosiy mas’uliyat, vakolat va resurslarning katta qismini joylarga tushirish, mahalladagi har bir imkoniyatni ish o‘rni va daromad manbaiga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi.

Bu yondashuv kambag‘allikni qisqartirishni faqat kredit yoki moddiy yordam berish bilan cheklamasdan, har bir oilaning ehtiyoji va salohiyatidan kelib chiqib uni ish, kasb, bozor va barqaror daromad manbai bilan bog‘lashni nazarda tutadi. Bunday manzilli ishni tashkil etishda mahallaning o‘rni hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

9-sentyabr kuni aholi bandligi va daromadlarini oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda bu vazifalar yanada aniqlashtirildi. Davlatimiz rahbari joylarda ishni kabinetdan turib emas, balki mahallaga tushib, har bir oila va har bir korxonadagi haqiqiy holatni o‘rganish asosida tashkil etish zarurligini ta’kidladi.

Darhaqiqat, tuman va mahallalarda to‘liq ishlatilmayotgan yoki bo‘sh turgan bino-inshootlar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni kengaytirish mumkin bo‘lgan yer maydonlarini aniqlash va ularni yangi loyihalarga bog‘lash muhim vazifaga aylanmoqda. Gavjum ko‘chalarda tadbirkorlik loyihalarini joylashtirish, tarixiy shaharlar va turizm mahallalarida xizmat ko‘rsatish obyektlarini ko‘paytirish kabi choralar ham mahallaning iqtisodiy salohiyatini ishga solishga qaratilgan.

Mahalladagi imkoniyatlar iqtisodiy faollik bilangina cheklanmaydi. Yoshlar, xotin-qizlar va ishsiz fuqarolarni kasb-hunar hamda xorijiy tillarga o‘qitish, aholini sportga jalb etish, yashil hududlar va jamoat joylarini ko‘paytirish kabi vazifalar ham mahalla hayoti bilan bevosita bog‘lanmoqda. Bu jarayonda mahallaning eng katta boyligi – inson. Har bir hududda jamoat ishlariga befarq bo‘lmagan faollar, oqsoqollar, tashabbuskor yoshlar va tadbirkorlarni bir maqsad atrofida birlashtirish jamoaviy mas’uliyat va daxldorlikni kuchaytiradi.

Islohotlarning muhim jihati shundaki, mahallaga yangi vazifalar bilan birga natijadorlik uchun katta mas’uliyat ham yuklanmoqda. Ajratilgan resurs, amalga oshirilgan loyiha va ilgari surilgan tashabbusning samarasi, avvalo, odamlar hayotidagi o‘zgarish, yangi ish o‘rni va barqaror daromad bilan baholanadi.

Shu ma’noda, mahallaning yangi taraqqiyot bosqichi uning tarixiy vazifalarini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning amaliyotda izchil davom ettirilayotgani esa mahallaning hududiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli yanada kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Zero, kuchli mahalla – faol fuqaro, farovon oila va obod hudud demak.

Ziyodbek YUNUSOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

YANGI HAYOT NAFASI

Bugun Andijon zamini ulkan bunyodkorlik maydoni, yangilanishlar va yuksak marralar markaziga aylanmoqda. Har bir mahalla, korxona va muassasada sezilayotgan bu o‘zgarishlar tub mohiyatida inson manfaatlari, xalqimizning roziligi va farovon turmush tarzini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam.



Davlatimiz rahbarining har bir andijonlik qalbida cheksiz faxr va hayajon uyg‘otgan viloyatimizga navbatdagi tashrifi chog‘ida ko‘zdan kechirilgan obyektlar, ishga tushirilgan yirik loyihalar hududning yaqin kelajakdagi taraqqiyot strategiyasini belgilab berib, shu yurt farzandlarining ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamladi, desak, ayni haqiqat.

Xususan, Prezidentimiz viloyatga tashrifini Andijon xalqaro aeroportida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari bilan tanishishdan boshladi. 1978-yilda ishga tushirilgan va vaqt o‘tishi bilan zamon talablaridan orqada qola boshlagan mazkur aeroport bugun yangi hayot nafasini olmoqda. Davlatimiz rahbarining bundan uch yil avvalgi topshiriqlari asosida boshlangan modernizatsiyalash jarayonlari bugun o‘z mevasini bermoqda. Umumiy qiymati 1,1 trln. so‘m bo‘lgan loyiha doirasida aeroport infratuzilmasi tubdan yangilandi. Qurilayotgan yangi ikki qavatli zamonaviy terminal binosi ishga tushgach xizmat ko‘rsatish quvvati 5 barobar oshadi.

Endilikda keng fyuzelyajli yirik havo kemalarini qabul qilish imkoniyati yaratilgani, yillik aviareyslar soni 2,5 mingtaga, yo‘lovchilar oqimi esa 3,5 mln. nafarga yetkazilishi rejalashtirilayotgani hududning iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini yanada yuksaltiradi. Bu, o‘z navbatida, xorijiy investorlar va sayyohlar uchun ulkan qulayliklar yaratadi.

Tashrif davomida Andijon tumanida tashkil etilayotgan “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi faoliyati ham Prezidentimizda katta qiziqish uyg‘otdi. Tog‘li va suv resurslariga boy mintaqamizda kichik gidroelektr stansiyalari va ularning uskunalariga talab kun sayin ortib bormoqda.

Umumiy qiymati 20 mln. dollar bo‘lgan mazkur loyiha to‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga amalga oshirilib, 2027-yilda to‘liq quvvatga chiqadi. Korxonada yiliga 70 mlrd. so‘mlik 100 ta kichik GES majmuasi va uskunalari ishlab chiqariladi. Bu kabi loyihalar mamlakatimizda “yashil” energetikani rivojlantirish, aholi va sanoat korxonalarini barqaror hamda arzon energiya bilan ta’minlashda muhim qadamdir.

Prezidentimiz ishtirokida viloyat tarixida misli ko‘rilmagan 9 mlrd. 400 mln. dollarlik 206 ta investitsiya loyihasining ishga tushirilishi va qurilishiga start berilishi andijonliklar uchun chinakam bayramga aylandi. Energetikadan tortib tibbiyot va ta’limgacha bo‘lgan sohalarni qamrab olgan mazkur tashabbuslar natijasida 45 mingdan ziyod ish o‘rinlari ochilib, yiliga 60,6 trln. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilishi va 533 mln. dollarlik eksport imkoniyati yaratilishi, eng avvalo, har bir oilaning daromadini oshirib, yigit-qizlar bandligini ta’minlab, yurtdoshlarimizning bugungi hayotdan roziligini yanada mustahkamlaydi.

Yangi sanoat korxonalarini barpo etish bilan birga, ular uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi ham doimo e’tibor markazida. “Ipak yo‘li” sanoat zonasida tashkil etilgan “Andijon-Huanya” xalqaro texnikumi buning yaqqol isboti. Qiymati 15 mln. dollar bo‘lgan va to‘liq xorijiy investitsiyalar hisobiga qurilgan mazkur muassasada 5 ming nafar o‘quvchiga mo‘ljallangan zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Dual ta’lim tizimi orqali yoshlar nazariy bilimlarni texnikumda egallab, amaliyotni sanoat zonasidagi yirik korxonalarda o‘tamoqda. Bu esa yoshlarimizning ertaga ishli bo‘lishi, munosib daromad olishi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishini kafolatlaydi.

Andijonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirish, yoshlar uchun munosib kelajak yaratish va viloyatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada ko‘tarishga xizmat qilmoqda. Deputat sifatida aholi bilan uchrashuvlarda bu islohotlarning amaliy natijalarini yetkazish va xalq manfaatlarini doimo ustuvor qo‘yishni o‘z vazifamiz deb bilamiz. Zero, xalq roziligi – barcha islohotlarimizning bosh mezoni.

Gulnoraxon ABDUVOHIDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

INSON QADRINI OSHIRISHNING ENG MUHIM MEZONI

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi o‘n yillik O‘zbekiston uchun milliy yuksalish davri bo‘lishini ta’kidlab, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan milliy dasturlardan birida suv va tabiatga munosabatni tubdan o‘zgartirish vazifasini belgilab berdi.

Aks sado



Keyingi yillarda mamlakatimiz uchun suv masalasi tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, havo haroratining ortishi, suvga bo‘lgan talabning ko‘payishi va resurslarning cheklangani undan oqilona va tejamkor foydalanishni bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylantirmoqda.

Bugun suv iste’molida yangicha yondashuv talab etilmoqda. Bu vazifa soha boshqaruv tizimidagi texnik o‘zgarishlar bilangina cheklanmaydi. Zero, obihayotning har bir qatrasi inson hayoti va farovonligi bilan bevosita bog‘liq. Kanallarni betonlashtirish, yopiq sug‘orish tizimlarini joriy etish, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish orqali yo‘qotishlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu nafaqat suv resurslarini asrash, balki fermerning xarajatlarini qisqartirish, hosildorlik va daromadni oshirishga ham xizmat qiladi.

Raqamlashtirish esa ushbu bebaho resursdan foydalanishda shaffoflik, aniqlik va hisobdorlikni ta’minlashning muhim vositasiga aylanishi lozim. Suvning qayerdan olingani, qancha yetkazib berilgani va qaysi hududda qancha sarflanganini raqamli tarzda kuzatish imkoni boshqarish sifatini oshiradi. Avtomatlashtirilgan suv o‘lchash qurilmalari va monitoring tizimlari orqali qarorlarni aniq va ishonchli ma’lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkoniyati kengayadi. Biroq texnologiyaning o‘zi yetarli emas. Jamiyatda obihayotni tejash madaniyati ham shakllanishi kerak. Bu jarayon har bir xonadondan boshlanib, fermer xo‘jaligi, korxona va mahallagacha izchil yetib borishi zarur. Suvni isrof qilmaslik oddiy kundalik odatdan milliy mas’uliyat va umumiy qadriyatga aylansa, amalga oshirilayotgan islohotlarning ta’siri yanada kuchayadi.

Daryolar, kanallar, suv omborlari va suv fondi yerlarini asrash nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar taqdiri uchun ham muhim. Shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va tabiiy resurslarga ehtiyotkor munosabatni kuchaytirish suv siyosatida katta o‘rin egallashi tabiiy.

Suv islohotlarini faqat ajratilgan mablag‘, qurilgan inshoot yoki o‘rnatilgan qurilmalar soni bilan baholash yetarli emas. Islohotlarning haqiqiy mezoni – inson hayotidagi amaliy natija. Shu ma’noda, birgina Surxondaryo viloyatida To‘polang daryosi suvidan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar inson hayoti, farovonligi, salomatligi va munosib yashash sharoitini ta’minlashga qaratilgan qadamlardan biri bo‘ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan To‘polang suv omboridan aholi xonadonlarigacha ichimlik suvi yetkazib berish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarning amaliy ifodasidir. Ayniqsa, tog‘li hududlarda yashovchi aholini toza ichimlik suvi bilan barqaror ta’minlash odamlarning kundalik turmushini yengillashtirib, ular uchun munosib yashash sharoitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu tashabbusning qadrini, avvalo, xonadonlarga obihayot kirib borgani, aholining vaqt va mehnati tejalayotgani, sanitariya va turmush sharoiti yaxshilanayotgani bilan baholash mumkin. Ya’ni islohotning mazmun-mohiyati uning raqamlarida emas, avvalo, inson hayotida aks etayotganida.

Suvga munosabatni o‘zgartirish nafaqat suv xo‘jaligi tizimi, balki butun jamiyatimizning vazifasi. Davlat samarali boshqaruv va zamonaviy infratuzilmani ta’minlasa, fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar suvdan mas’uliyat va tejamkorlik bilan foydalanishi kerak. Bu ikki omil uyg‘unlashgandagina suv resurslaridan samarali foydalanishning barqaror tizimini shakllantirish mumkin. Zero, suvni asrash – insonning bugungi farovonligi va ertangi hayotini asrash. Suv va tabiatga munosabatning tubdan o‘zgarishi oddiy ekologik vazifa emas, balki odam qadrini yuksaltirish, aholi farovonligini ta’minlash va mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qiladigan strategik maqsaddir.

Bu jarayon deputatlar zimmasiga ham muhim vazifalarni yuklaydi. Avvalo, suv sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qog‘ozdagi ko‘rsatkichlarini emas, hayotdagi amaliy natijalarni nazorat qilish zarur. Hududlarda aholi bilan bevosita muloqotga kirishib, suv ta’minoti va irrigatsiya bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish, ularni parlament va mahalliy Kengashlar muhokamasiga olib chiqish lozim. Chunki suv siyosatida inson manfaatini ta’minlash – bu nafaqat ijro organlarining, balki xalq vakili sifatida deputatlarning ham bevosita mas’uliyati.

Nigora LUTFULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Shu yil 1-oktyabrdan boshlab Toshkent shahrida tajriba tariqasida Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining “Jarima maydonchasi” yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi moduli ishga tushiriladi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 24-sentyabr

1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

BILIMLI AVLOD — KUCHLI DAVLAT POYDEVORI

Bugungi zamonaviy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, bu – bilim. Chunki tabiiy resurs tugashi, texnologiya eskirishi, ayrim iqtisodiy ustunliklar vaqt o‘tishi bilan yo‘qolishi mumkin, ammo bilimga intilgan jamiyat yangi resurs, kuchli texnologiya va salohiyati yuqori iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Shu bois ta’limga yo‘naltirilgan sarmoyani oddiy ijtimoiy xarajat emas, balki mamlakatning kelgusi o‘n yillikdagi iqtisodiy, texnologik hamda ma’naviy qudratini belgilaydigan strategik investitsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta’lim, ilm-fan va zamonaviy kasblarni egallagan avlod masalasiga alohida to‘xtalib, o‘tgan o‘n yilda bog‘cha qamrovi 78 foizga yetkazilgani, maktablarda 1,5 mln. qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni yaratilgani, oliy ta’limda talabalar soni 1 mln. 600 ming nafarga yetganini qayd etdi. Shu bilan birga bilim hamda malakani mamlakat taraqqiyotining asosiy kapitaliga aylantirishga qaratilgan yangi vazifalar belgilandi. Ularning ahamiyati, avvalo, mamlakatning ertangi ravnaqi qanday inson kapitaliga tayanishi bilan o‘lchanadi. Zero, ta’lim sifati va yoshlarni zamonaviy kasblarga tayyorlash shunchaki ijtimoiy sohadagi navbatdagi vazifa emas. Bu – iqtisodiyot raqobatbardoshligi, ish o‘rinlari yaratilishi, aholi daromadlari o‘sishi hamda mamlakatning texnologik taraqqiyotini belgilaydigan strategik omil.

Muallim qadri – millat kelajagiga e’tibor

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’limga munosabat mazmunan o‘zgardi. U endilikda faqat ijtimoiy sohaning bir tarmog‘i emas, balki iqtisodiyot, ilm-fan, texnologiya, madaniyat va umuman, davlatning raqobatbardoshligini belgilaydigan asosiy tizim sifatida qaralmoqda.

Bu o‘zgarishlarning mustahkam huquqiy asosi ta’minlanayotgani ham alohida ahamiyatga ega. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ta’lim masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Bosh qomusimizning 50-moddasida har kimning ta’lim olish huquqiga egaligi mustahkamlangan. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning turli shakllari, davlat va nodavlat maktablar rivojlanishini ta’minlashi belgilangan. Shuningdek, bepul umumiy o‘rta va boshlang‘ich professional ta’lim kafolatlangan, alohida ehtiyoji bor bolalar uchun inklyuziv bilim olishi konstitutsiyaviy norma darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 52-moddasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etilgan. Shuningdek, davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy hamda moddiy farovonligi va kasbiy o‘sishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi belgilangan. Bu, eng avvalo, o‘qituvchining jamiyatdagi o‘rni konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilganini anglatadi.

Shu o‘rinda mamlakatimizda qabul qilingan qator qonunlarni ham tilga olish o‘rinli. Misol uchun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham sohani zamonaviy talablar asosida huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim bosqich bo‘ldi. Unda ta’limning ustuvorligi, uning uzluksizligi va izchilligi, insonning butun hayoti davomida o‘qib-o‘rganishi, pedagoglarni ijtimoiy himoya qilish, ochiqlik va shaffoflik kabi prinsiplar mustahkamlandi.

“Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun esa ta’lim sohasidagi muhim huquqiy qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu hujjat bilan pedagogning huquq hamda majburiyatlari, kasbiy faoliyati kafolatlari, mehnatini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish masalalari mustahkamlandi. Xususan, pedagogni kasbiy faoliyatiga aloqasi bo‘lmagan ishlarga, jumladan, obodonlashtirish va qishloq xo‘jaligi yumushlariga jalb etish, undan kasbiy vazifasiga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni talab qilish, zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash kabi holatlar taqiqlandi. Pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish javobgarlikka sabab bo‘lishi ham belgilandi.

Bularning barchasi yurtimizda pedagoglar qadr-qimmatini yuksaltirish, uning huquqlarini ishonchli himoyalash, pirovardida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Intellektual sarmoya

Darhaqiqat, oxirgi o‘n yil Yangi O‘zbekistonda keng ko‘lamli o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy va professional ta’limgacha bo‘lgan tizimning deyarli barcha bo‘g‘inlari qayta ko‘rib chiqildi. Yangi o‘quv muassasalari tashkil etildi, mavjudlarining moddiy-texnika bazasi yangilandi, nodavlat sektorga kengroq imkoniyatlar berildi, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirildi.

Muallimni qadrlash faqat ma’naviy e’tirof bilan cheklanmay, uning moddiy holatini yaxshilash bilan ham uyg‘unlashmoqda. Bu bejiz emas. Agar jamiyat yosh avlodning eng iqtidorli vakillarini pedagogikaga jalb etmoqchi bo‘lsa, o‘qituvchilik kasbi intellektual, ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan jozibador bo‘lishi lozim. Shu maqsadda milliy va xalqaro sertifikatlarga ega pedagoglarni rag‘batlantirish, malaka hamda natijaga bog‘liq ustamalarni kengaytirish kabi mexanizmlar joriy etilmoqda. O‘z ustida ishlagan, yangi metodikalarni o‘zlashtirgan, xorijiy til yoki zamonaviy texnologiyalarni o‘rgangan, o‘z fanini chuqur egallagan o‘qituvchining professional maqomi va daromadida bu mehnat o‘z aksini topishi muhim. Shu ma’noda, o‘qituvchini qo‘llab-quvvatlash bir martalik rag‘bat emas, balki doimiy kasbiy rivojlanish tizimiga aylanib borayotgani e’tiborga molik.

Ta’lim tizimining barqaror taraqqiyoti, avvalo, pedagogning ilmiy hamda kasbiy salohiyati, jamiyatdagi nufuzi va mehnatining munosib qadrlanishiga bog‘liq. O‘qituvchining uzluksiz izlanishi, zamonaviy bilim hamda metodikalarni egallashi uchun yaratilgan sharoitlar pirovardida ta’lim sifatiga, yosh avlodning intellektual salohiyatiga va mamlakatning ilmiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan, pedagogga tikilgan sarmoyani jamiyatning intellektual kelajagiga yo‘naltirilgan eng muhim va uzoq muddatli investitsiyalardan biri deyish mumkin.

Qamrovdan sifat sari

Ta’kidlash joizki, o‘tgan yillardagi eng katta miqdoriy o‘zgarishlardan biri oliy ta’limda kuzatildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda talabalar soni 1 mln. 600 ming nafarga yetgani va ularning yarmidan ko‘pini xotin-qizlar tashkil etayotgani e’tiborga sazovor. Bu oliy ma’lumot olish imkoniyati jamiyatning ancha keng qatlami uchun ochilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning oliy ta’limdagi ishtiroki kengayishi uzoq muddatli ijtimoiy ahamiyatga ega. Negaki, bilimli ayol faqat mehnat bozori uchun mutaxassis emas. U oilada bilimga, kitobga va farzand kelajagiga bo‘lgan munosabat shakllanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z navbatida, qamrov kengayishi bilan sifat masalasi ham yanada dolzarblashadi. Shuning uchun endilikda asosiy mezon bitiruvchining diplomi emas, uning bilimi hamda malakasi bo‘lishi ayni muddaodir. Kelgusida kamida 10 ta O‘zbekiston universitetini dunyoning “TOP – 1000”talik oliy ta’lim muassasalari qatoriga kiritish maqsadining belgilanishi ham sifat va xalqaro raqobatbardoshlik masalasini kun tartibiga olib chiqayotir.


Yana bir ahamiyatli jihat, o‘zbek tilining raqamli dunyoda ilm hamda texnologiya yaratiladigan tilga aylanishi masalasidir. Ya’ni o‘zbek lisonida ilmiy terminologiyani takomillashtirish, elektron darsliklar, ilmiy bazalar, raqamli kutubxonalar va sun’iy intellekt modellari uchun sifatli til korpuslarini yaratish muhim vazifalardan biridir. Bu barchamizning, ayniqsa, ilm-fan, texnologiya, axborot sohasi hamda butun jamiyat sa’y-harakatini birlashtiradigan umummilliy ilmiy maqsadga aylanishi maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda ta’limga, ilm-fanga, pedagogga va yoshlarning kasbiy salohiyatiga kiritilayotgan sarmoya ertangi kun iqtisodiyoti hamda farovonligiga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta’limni rivojlantirish faqat bir sohani isloh qilish emas, mamlakat kelajagini bunyod etish degani. Zero, bilimga yo‘naltirilgan sarmoya – kelajakka kiritilgan eng ishonchli investitsiya.

Qumri SAFAYEVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

«ENG KATTA MUKOFOT – MEHNATIM SAMARALARINI SHOGIRDLARIM YUTUQLARIDA KO‘RISH»

Shu yilning 19-sentyabr kuni davlatimiz rahbarining Qoraqalpog‘istonga tashrifi doirasida bo‘lib o‘tgan muloqotda ishtirok etarkanman, bundan ikki yil avvalgi suhbatimiz yodimga tushdi. O‘shanda Prezidentimiz bilan o‘qituvchilar mehnati, ularga yaratilayotgan sharoitlar va ish haqi haqida fikrlashgan edik.



Gap shundaki, o‘sha suhbatda chekka hududda ishlashimga qaramay, 2 ming dollar ekvivalentida mehnat haqi olayotganimni aytgan edim. Prezidentimiz esa: “4 ming dollar olsangiz, rozi bo‘laman”, degan edi.

O‘sha paytda bu gapni eshitganimda qalbimda alohida bir his paydo bo‘lgan. Chunki bu so‘zlarning o‘ziyoq o‘qituvchi mehnatiga davlatimiz rahbari tomonidan qanday yuksak baho berilayotganini anglatar edi.

Bugun esa ortga nazar tashlab, o‘sha muloqotda aytilgan fikrlarning hayotdagi ifodasini ko‘rib turibman. Prezidentimiz o‘qituvchining oylik mehnat haqi 2 ming dollar bo‘ladi, deganida uncha ishonqiramaganlar ham bo‘lgani rost. Qarangki, oradan ko‘p ham o‘tmay bu gaplar haqiqatga aylandi.

Mening o‘zim ham yaratilgan adolatli rag‘bat tizimi natijasida 2 ming dollar ekvivalentida mehnat haqi olaman. Bu yil esa “Yil o‘qituvchisi” tanlovida ishtirok etib, g‘olib bo‘ldim. Buning uchun 616 million so‘m, ya’ni qariyb 50 ming dollar miqdorida bir martalik pul mukofotiga ega bo‘ldim.

Bu mukofot men uchun faqat moddiy rag‘bat emas, bu – ko‘p yillik mehnatim, izlanishlar, kasbimga bo‘lgan mehrim va yosh avlod ta’lim-tarbiyasi yo‘lidagi intilishlarimga berilgan yuksak baho.

> *“Prezidentimizning o‘qituvchilar haqidagi fikrlarini har safar eshitganimda, o‘z yutuqlarimiz haqida o‘ylayman. Ko‘nglimdan shunday fikr o‘tadi: bunday imkoniyat va e’tibor sharoitida ulkan natijalarga erishish har bir o‘qituvchi uchun odatiy mehnat tartibiga aylanishi kerak.”*

Mehnat faoliyatimni 2008-yilda Nukus shahridagi 38-maktabda boshlaganman. 2010-yilda o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida bakalavr, 2013-yilda magistratura bosqichini tamomladim. Ayni paytda Qonliko‘l tumanidagi 2-maktabda o‘zbek tili fani o‘qituvchisiman.

Asosiy ish faoliyatim bilan birga mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy izlanishlarni ham davom ettirdim. 2023-yilda “O‘zbek va qoraqalpoq tillarida so‘zlashuv ma’noli frazemalar” mavzuida ilmiy ishimni himoya qildim. 2020 va 2023-yillarda dars ishlanmalarim mamlakat bo‘ylab keng yoyildi. 2023-yilda esa “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanlovining respublika bosqichida g‘olib bo‘ldim.

Fan olimpiadalaridagi yutuqlarim uchun Prezidentimizning tegishli qarori asosida oyligimga 100 foiz, respublika olimpiadasi g‘olibi sifatida yana 100 foiz ustama to‘lanadi. O‘zbek tili bo‘yicha milliy sertifikatdan “A+” darajasiga egaman va buning uchun 50 foiz ustama olaman. Shuningdek, Vazir jamg‘armasidan 70 foiz, ilmiy ishim uchun 30 foiz, direktor jamg‘armasidan ham 30 foiz ustama beriladi.

Bularning har biri men uchun yanada katta mas’uliyat demakdir. Chunki ustozga berilgan har qanday imtiyoz va rag‘bat ortida jamiyatning unga bildirgan ishonchi bor.

Ayni paytda Qonliko‘l tumanida filologiya yo‘nalishi bo‘yicha mentor sifatida ham faoliyat olib boryapman. Hamkasblarim bilan tajriba almashaman, o‘qituvchilar uchun darslarni qay darajada samarali tashkil etish kerakligi bo‘yicha seminarlar o‘tkazaman. Bir qancha o‘quvchilarim o‘zbek tilidan milliy sertifikatga ega bo‘lgani ham men uchun katta yutuq.

Bugun mamlakatimizda o‘qituvchi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni ko‘rib, “Nega men o‘qituvchi bo‘ldim?” degan savolga yanada aniq javob beraman. Chunki ustozlik shunchaki kasb emas. Bu – yurt kelajagiga daxldor sharafli vazifa. Men uchun eng katta mukofot – mehnatim samaralarini shogirdlarim yutuqlarida ko‘rish.

Prezidentimizning o‘qituvchilar haqidagi fikrlarini har safar eshitganimda, o‘z yutuqlarimiz haqida o‘ylayman. Ko‘nglimdan shunday fikr o‘tadi: bunday imkoniyat va e’tibor sharoitida ulkan natijalarga erishish har bir o‘qituvchi uchun odatiy mehnat tartibiga aylanishi kerak.

“Yil o‘qituvchisi” tanlovidagi g‘olibligimni faqat o‘zimning yutug‘im deb bilmayman. Bu – menga ishonch bildirgan maktabim jamoasi, ta’lim bergan ustozlarim, doimo qo‘llab-quvvatlab kelayotgan yaqinlarim va albatta, men bilan birga izlanayotgan o‘quvchilarimning ham yutug‘i.

Prezidentimiz bilan bo‘lgan muloqotdan yana bir bor shunday xulosaga keldim: o‘qituvchiga hurmat va e’tibor bor joyda ta’limga ishonch, kelajakka umid va yangi natijalar uchun intilish bo‘ladi.

Men esa bundan keyin ham o‘z ustimda ishlashga, izlanishga, o‘quvchilarimga sifatli ta’lim berishga va ustoz degan yuksak nomga munosib bo‘lishga harakat qilaman. Chunki men uchun eng katta mukofot – unvon yoki moddiy manfaat emas, balki o‘z mehnatim natijasini o‘quvchilarimning yutuqlarida ko‘rish va o‘z kasbimga munosib bo‘lish.

Nigora ALLAMBERGENOVA,
Qonliko‘l tumanidagi 2-umumta’lim maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

KITOB javoningizga

OLTIN OVOZLAR SEHRI

Inson qalbiga yo‘l topadigan sirli va sehrli kalitlar ko‘p. Ammo shunday bir kalit borki, u na eshik, na qulf tanlaydi – to‘g‘ridan-to‘g‘ri yurakka kiradi. Bu – musiqa. Qo‘shiq esa uning inson ruhi bilan so‘zlashadigan eng qadimiy va eng ta’sirchan tilidir.



Yaxshi qo‘shiq yillar davomida xotirada yashaydi. U bolalik manzaralarini, ona allasini, Vatan sog‘inchini, ayriliq va visol, quvonch va armonni bir lahzada inson qalbiga qaytarishi mumkin. Shu ma’noda, qo‘shiq xalqning xotirasi, ruhiyati va estetik tafakkurini avloddan-avlodga yetkazadigan betakror ma’naviy hodisadir.

O‘zbek qo‘shiqchilik san’ati boy ma’naviy xazinaga ega. Unda xalq og‘zaki ijodining beqiyos an’analari, maqom va mumtoz musiqaning nozik nafasi, zamonaviy ijodning izlanishlari mujassam. Asrlar davomida shakllangan bu san’at maktabida ustozdan shogirdga o‘tib kelgan ohanglar, ijro uslublari, ovoz maktablari xalqimiz madaniy xotirasining muhim qismini tashkil etadi.

Ana shu bebaho xazinani asrab-avaylash, uning yaratilish va ijro tarixini yozib qoldirish ham o‘ziga xos ma’naviy mas’uliyatdir.

Taniqli yozuvchi va publitsist Ashurali Jo‘rayevning “Oltin ovozlar” kitobi ana shu ehtiyojdan tug‘ilgan, milliy qo‘shiqchilik san’atining betakror namoyandalari haqida hikoya qiluvchi qimmatli ijodiy-ma’rifiy manbalardan biri. Muallifning uzoq yillik ijodiy izlanishlari natijasi bo‘lgan ushbu kitobda o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan, xalq mehrini qozongan san’atkorlarning sermazmun hayoti, mashaqqatli ijod yo‘li va el sevgan qo‘shiqlarining yaratilish tarixi qalamga olingan.

Har biri milliy musiqa san’atimiz taraqqiyotida o‘z ovozi va uslubi, o‘z maktabi bilan katta o‘ringa ega bo‘lgan Yunus Rajabiy, Komiljon Otaniyozov, Botir Zokirov, Sherali Jo‘rayev, Munojot Yo‘lchiyeva, Otajon Xudoyshukurov kabi san’at darg‘alari bilan bog‘liq xotiralar, ijodiy izlanishlar va qo‘shiqchilik san’atining sir-sinoatlari haqidagi maqolalar to‘plamdan joy olgan.

Muallif kitobda san’atkorlar hayoti va ijodini quruq tarjimayi hol tarzida bayon etmaydi. Ularning ijodiy taqdiri orqali o‘zbek qo‘shiqchilik san’atining muayyan bosqichlari, uning shakllanish va taraqqiyot jarayonlarini ko‘rsatishga intiladi. Qo‘shiqlarning qanday tug‘ilgani, ularning mohiyati va ruhi, xalq qalbidan qanday o‘rin olgani haqidagi hikoyalar kitobxonni san’atning ichki olamiga yetaklaydi.

UCH ASAR – UCH OLAM

O‘zbek adabiyoti va publitsistikasida o‘ziga xos o‘ringa ega ijodkor, taniqli tarjimon Asror Mo‘min qalamiga mansub asarlar kitobxonlarga ma’naviy va yuksak estetik zavq bag‘ishlashi bilan e’tiborga molik.



Ayonki, shaxmat – shunchaki o‘yin emas, balki sabr, strategik fikrlash va yuksak intellekt san’atidir. Asror Mo‘minning “O‘zbekiston shohmoti: kecha, bugun, ertaga” nomli kitobida yurtimizda shaxmat san’atining qadimiy ildizlaridan tortib, bugungi kun o‘zbek grossmeysterlarining muvaffaqiyatlarigacha bo‘lgan yo‘lni izchil yoritib beradi.

Axborot oqimi shiddat bilan o‘sib borayotgan ayni zamonda muallif “Kitob – kamolot kafolati” nomli kitobida mutolaaning inson kamolotidagi beqiyos o‘rni haqida fikr yuritadi. To‘plamdagi publitsistik maqolalarda yoshlarni mutolaaga jalb etish va bu orqali komillikka erishish yo‘llari tahlil qilinadi. Chunki kitobxon avlod – yurt kelajagining eng ishonchli kafolati.

Avar xalqining dunyoga mashhur atoqli shoiri Rasul Hamzatovning she’rlari va boshqa lirik asarlari Asror Mo‘min tomonidan mahorat bilan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “Turnalar” nomli she’rlar to‘plami urush fojiasi, yo‘qotishlar va abadiy xotira, shu bilan birga, insoniy samimiyat, muhabbat va tinchlik haqidagi mahzun va yuksak poetik namunadir. Tarjimon asarning asl ruhiyati, ohangi va chuqur lirizmini o‘zbek tilida nihoyatda go‘zal va ta’sirli tarzda qayta yarata olgan.

Asror Mo‘minning ushbu uch kitobi mutolaasidan fikrlaringiz boyib, ruhiyatingiz yanada yuksaladi, deb ishonamiz.

“Xalq so‘zi”.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Samarqand shahrida o‘tkazilayotgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga bag‘ishlangan oltin va kumush esdalik tangalarini muomalaga chiqaradi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 20.35 Topshirildi – 23.41 1 2 3 4 5 6